

O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Bekmatova Umida Toshqulovna

Sirdaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish haqida ma'lumotlar berilgan. Biologiya fanida kreativlikni rivojlantirish uchun bir nechta aniq va tushunarli misollar keltirilgan. Maqolada ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim? Degan savollar ustida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik; tassavur; biologiya ta'limi; stereotip; ijodkorlik; ertak; hikoya; fotosintez.

Kreativlik tushunchasi lotincha, inglizcha “create”- yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod degan ma'nosini anglatadi. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Kreativlik- bu so'zni sodda tilda tushintiradigan bo'lsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko'nikmasidir. Kreativlik bu xar kim xar xil tushinadi lekin to'g'ridan- to'g'ri tushinadigan bo'lsak kreativlik bu ijodkorlik, ya'ni kreativ so'zi ijod degan ma'noni anglatadi.

Prezidentimiz SH. Mirziyayev ta'kidlaganlaridek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim? Tasavvur bilimdan muhim(mi?). Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir.

Albert Eynshteyn “Tasavvur – bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni

nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Qoliplardan voz kechamiz. Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi.

Stereotip-bu odamlar, guruhlar yoki hodisalar haqida oldindan shakllangan, soddalashtirilgan umumiy fikr.

Masalan: “Hozirgi o‘quvchilar kitob o‘qimaydi”, “Yoshlar mas’uliyatsiz”, “Biologiya fani maktabda o‘qitiladi, lekin o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma etishmaydi”, “O‘quvchilar kreativ fikrlashni bilmaydi” degan fikrlardan foydalaniladi. Stereotiplar shu paytgacha ma’lum bo‘lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Masalan “Biologiya” deganda daraxtlar, yashillik, o‘simliklar, hayvonlar, sabzavotlar, gullar, archalar va hokazolarni tasavvur qilish, medisinada doctor obrazida oq xalat kiygan, ko‘zoynakli odamni ko‘rish qolip asosida fikrlashning ko‘rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o‘zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg‘amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

Biologiya fanida kreativlikni rivojlantirish uchun bir nechta aniq va tushunarli misollar keltiramiz:

1. “Agar men hujayra bo‘lsam...”. Bu topshiriq tasavvur, tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi

O‘quvchilarga shunday topshiriq beriladi:

“Agar sen hujayra bo‘lsang, qaysi organoid bo‘larding va nega?” Masalan:
Mitoxondriya bo‘lardim — chunki mitoxondriya energiya ishlab chiqaradi
Yadro bo‘lardim — chunki yadro boshqaruv markazi

2. Biologik ertak yoki hikoya yozish. O‘quvchlari ilmiy tushunchani ijodiy shaklda ifodalaydilar.

5–6-sinf uchun (boshlang‘ich/orta bosqich)

Ertak nomi: “Gapiruvchi hujayra”

Mazmuni: Bir hujayra boshqa hujayralarga hayot sirlarini o‘rgatadi, va ular birgalikda organizmni qanday himoya qilishni o‘rganadilar.

Hikoya nomi: “Quyoshni izlagan gul”

Mazmuni: Bir gul quyoshni topish uchun uzoq yo‘lga chiqadi va yo‘lda turli o‘simliklar va hayvonlar bilan uchrashadi.

7–9-sinf uchun (o‘rta maktab)

Ertak nomi: “Ildizlar sirli maktubi”

Mazmuni: Daraxt ildizi yer ostida yashirin maktub topadi, u orqali yer ostidagi hayot va o‘simliklar qanday bog‘langanini o‘rganadi.

Hikoya nomi: “DNK sirini topgan bola”

Mazmuni: Bir bola DNK orqali hayotning asosiy qoidalarini o‘rganadi va u

orqali o'z oilasining o'tgan avlodlarini kashf etadi.

“Bir bakteriyaning inson tanasidagi sarguzashtlari”, “Agar hujayralar o'ylay olsa”, “Mikroskop ostidagi hayot”, mavzusida qisqa hikoya yozish

“Gapiruvchi hujayra”, “Kislorod sovg'a qilgan daraxt”, “Bir tomchi suv hayoti” mavzusida ertaklar yozish vazifasini berish mumkin.

3. Chizish va dizayn. Bu usul vizual kreativlikni oshiradi.

O'simlik hujayrasini oddiy rasm emas, balki shahar shaklida chizish Yurakni nasos yoki metro tizimiga o'xshatib tasvirlash.

4. Rolga kirish (drama)

Mavzu: Fotosintez

Bir o'quvchi – quyosh

Biri – barg

Biri – suv

Biri – CO₂

Jarayon sahnalashtiriladi. Juda samarali va esda qoladi

5. “Nima bo'lardi agar...?”

Savol:

“Agar Yerda kislorod bo'lmaganida, tirik organizmlar qanday bo'lardi?”

Bu savol fantaziya + ilmiy mantiqni birlashtiradi.

Biz uchun kreativlik nega kerak? Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o'zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o'z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan g'oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kreativlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz.

Xulosa qilib aytganda kreativlik insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyatidir. Uning tag zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli xil texnikaviy yondashishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ – 231-sonli qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 - 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PF-134-son Farmoni.

3. U. Sharifxodjayev, D. Norboyeva. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi – Toshkent, 2020-yil.

4. Исследование PISA в 2021 году сравнит креативность мышления 15-летних школьников из разных стран http://obrnadzor.gov.ru/ru/press_center/news/index.php?id_4=6958.

5. Авдеенко Н. А., Денищева Л. О., Краснянская К. А., Михайлова А. М., Пинская М. А. Креативность для каждого: внедрение развития навыков XXI века в практику российских школ // Вопросы образования. 2018. № 4. С. 282-304.

6. Biologiya [Matn]: 7-sinfi uchun darslik / K. A. Saparov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 176 b

7. Mavlonov, T. Tilavov, B. Aminov Biologiya (Odam va uning salomatligi) 8-sinf Toshkent-2019-yil.